

TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARI RIVOJLANISHI

Bexzodjon SHERMUXAMEDOV,

Toshkent moliya instituti o'qituvchisi

Annotation

The article examines the deposit operations carried out by commercial banks in our Republic and analyzes the data of the deposit base. The importance of deposits in the activity of commercial banks is based on the results of studies aimed at increasing the bank deposit base operating in Uzbekistan.

Key words

deposit, deposit base, deposit policy, transformation, diversification, balance sheet, bank balance sheet, deposit operations, time deposits.

Аннотация

В статье изучены депозитные операции, осуществляемые коммерческими банками республики, и проанализированы данные депозитной базы. Значение депозитов в деятельности коммерческих банков основано на результатах исследований, направленных на расширение базы банковских депозитов Узбекистана.

Ключевые слова

депозит, депозитная база, депозитная политика, трансформация, диверсификация, баланс, банковский баланс, депозитные операции, срочные вклады.

Annotation

The article examines the deposit operations carried out by commercial banks in our Republic and analyzes the data of the deposit base. The importance of deposits in the activity of commercial banks is based on the results of studies aimed at increasing the bank deposit base operating in Uzbekistan.

Key words

deposit, deposit base, deposit policy, transformation, diversification, balance sheet, bank balance sheet, deposit operations, time deposits.

Kirish

Davlat o'z hududida faoliyat yuritayotgan banklar barqarorligiga alohida e'tibor qaratishi ma'lum. Umuman, zamonaviy bank tizimida bank kapitalini boshqarish samaradorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Banklarning moliyaviy institut sifatidagi faoliyati likvidlilikni saqlash, risklarni iloji borcha kamaytirish, qo'yilma egalari va aksiyadorlarning huquqlariga putur yetkazmagan holda yuqori daromad olishga qaratilgan. Tijorat banklari o'z faoliyatida ko'proq foyda olishga ustuvorlik berishi tufayli bank foydasi tushunchasining mohiyati yangicha ijtimoiy-iqtisodiy mazmun bilan boyimoqda. Banklar marketing faoliyati asosiy yo'nalishini belgilashda yangi turdag'i bank xizmatlarini joriy qilish, mijozlar uchun filiallar tarmog'ini kengaytirish, xizmatlarini universallashtirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali bozordagi ishtirokini kengaytirishga ahamiyat qaratmoqdalar.

Rivojlangan mamlakatlarda, masalan, AQSh, Yaponiya, shuningdek, Yevropa Ittifoqiga kiradigan qator davlatlarda tijorat banklari depozit bazasining salmoqli ulushini jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari egallaydi. Aytish joizki, ushbu mamlakatlarda olingan mablag'lar maxsus "Mobile banking" ilovalari orqali boshqariladi. O'zbekiston tijorat banklari ham jismoniy shaxslarga shu kabi ilovalarni taqdim etib, ularning ko'lamini kengaytirib, o'z mablag'larini oshirishga muvaffaq bo'lishdi. Ilmiy tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari yuridik shaxslarning depozitlari (jumladan talab qilib olunguncha) nisbatan arzon va uzoq muddatli resurs manbayi hisoblanadi. Lekin O'zbekiston tijorat banklari misolida ko'radian bo'lsak, yuridik shaxslardan jalb qilingan mablag'lar arzon hisoblanadi.

O'zbekiston bank tizimini isloh qilish, bank xizmatlarining ommabopligrini oshirish, banklarning mamlakat chekka hududlariga kirib borishini jadallashtirish orqali barcha aholi punktlarida bank xizmatlari turlarini kengaytirish, bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot va moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omili ta'sirini kamaytirish, bank sektorining iqtisodiy transformatsiyasi va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanishini ta'minlash borasida strategik islohotlarni amalga oshirish bo'yicha ma'lum natijalarga erishilmoqda. "Zamonaviy moliyaviy xizmatlar, operatsiyalar va texnologiyalarni (fintex) hamda naqd pulsiz to'lovlarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish" [1] bo'yicha ustuvor vazifa belgilanganligi iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sod Farmoni bilan tasdiqlangan "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi"da bank tizimini rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor sohalari, 2020–2025-yillarda bank tizimini transformatsiya va isloh qilish yo'nalishlari, xorijiy mamlakatlarning moliya sektorini transformatsiya qilish tajribasi asosida va moliyaviy sohadagi jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda, ehtimoliy yechimlarni

izlash yo'llari belgilangan. Strategiyaning maqsadi zamonaviy bank tizimini shakllantirish, banklarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va bank xizmatlarining yangi standartlarini joriy etishga qaratilgan bank tizimida kompleks o'zgartirishlarni amalga oshirishdan iborat [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tijorat banklar transformatsiya jarayonida depozit siyosatini samarali tashkil qilish orqali aholi bo'sh pul mablag'lарini jalb qilish bilan bog'liq muammolar qator olimlar tomonidan tahlil etilgan. Xususan, olib boriladigan depozit siyosatining maqsadi va vazifalarini aniqlash masalalarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bir qator olimlar depozit siyosatini ishlab chiqishda asosiy masala maqsadni to'g'ri shakllantirish va ushbu maqsadga erishish uchun moliya bozorining zamonaviy holati, shuningdek, iste'molchilarining manfaatlarini hisobga oluvchi tegishli instrumentlarni tanlash hisoblanadi deb fikr bildirganlar. Bundan tashqari, tijorat banklari dastlabki bosqichda depozit operatsiyalariga kirib borish uchun depozit siyosatini ishlab chiqishi, so'ngra bank faoliyatini olib borish jarayonida depozit portfelini rivojlantirish va diversifikatsiyalash siyosatini tayyorlash kerakligi ham ta'kidlangan. Depozit siyosati strategiyasi tijorat bankingning bozordagi salmog'iga mos ravishda bir necha turda bo'lishi mumkin. Jumladan, bunday strategiyalar O.I.Lavrushin tomonidan yetakchi, raqobatchi ortda qoluvchi strategiyalari sifatida tasniflangan.

Depozit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun javobgar bo'lgan tegishli bo'linmalarni belgilab olish hamda bank xodimlari o'rtaida vakolatlarni taqsimlash (depozit siyosatining ma'muriy mexanizmini ishlab chiqish). Har bir kredit tashkiloti depozit siyosatini shakllantirish va amalga oshirish bo'yicha bank bo'linmalari va xodimlari o'rtaisdagi o'zaro muvofiqlashgan faoliyatini tashkil etish tizimini ishlab chiqadi.

Resurslarni jalb etish borasidagi zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqish: depozit mablag'larni jalb etish instrumentlari (depozit operatsiyalar va ularning asosiy shartlari) va depozit operatsiyalarini amalga oshirishning ichki reglamentatsiyasi (depozit siyosatini amalga oshirish vositalari).

Depozit operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida nazorat va boshqaruvni tashkil etish. Depozit siyosatining ushbu elementi nazorat va boshqaruvni amalga oshirishning logistik tizimi, bank bo'limlari va xodimlarining o'zaro hamkorligi algoritmi, vakolatlar doirasasi va samaradorlikni baholash ko'rsatkichlarini qamrab oladi [3].

M.N.Buxadurova "Aholi bilan o'zaro munosabatlarda tijorat banklarining depozit siyosati" nomli ilmiy ishida qayd etishicha, "depozit siyosati bank siyosatining ajralmas qismi hisoblanib, qaytarishlilik va to'lovililik shartlari asosida bank mijozlarining pul mablag'lарini jalb etish bo'yicha bosqichma-bosqich, o'zaro aloqador xatti-harakatlar; maqsadga muvofig darajadagi rentabellik va bank likvidliligiga erishishni ta'minlash maqsadida siyosatni amalga oshirish metodlari va vositalari jamlanmasi" hisoblanadi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma'lumotlarni jadvallar asosida qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhash, abstrakt-mantiqiy fikrlash, tizimli tahlil asosida statistik guruhash, induksiya va deduksiya hamda ekspert baholash usullaridan ham unumli foydalanildi.


Tahlil va natijalar. Banklarning moliyaviy barqarorligi, iqtisodiy samaradorligi va risklar xavfsizlik me'yорини та'minlanishi, ularning depozit bazasini mustahkamligi bilan bevosita bog'liqdir. Keyingi yillarda xalqaro va mahalliy moliya bozorlarida depozit mablag'larga bo'lgan talabning ortib borishi banklar depozit bazasiga oid dolzarb masalalarni yuzaga chiqarmoqda. Xususan, banklar depozit bazasining iqtisodiy mazmunini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilish, shuningdek, uning manbalari va unga ta'sir qiladigan omillarni aniqlash shular jumlasidandir.

2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra jami depozitlar qoldig'i 206,8 trln so'm, shundan, aholi omonatlari qoldig'i 54,5 trln so'mni tashkil qildi [5].

Tijorat banklari tomonidan depozit operatsiyalarini amalga oshirish va bo'sh turgan moliyaviy mablag'larni jalb etish bo'yicha hozirgi kunda raqobat kuchaymoqda. Banklar tomonidan turli shartlar bilan taqdim etiladigan depozitlarning turlari oshib bormoqda. Milliy valyuta bilan bir qatorda xorijiy valyutadagi depozitlar ham keng rivojlanmoqda.

Tijorat banklariga bo'lgan ishonch yil sayin oshib bormoqda. Buni xorijiy valyutadagi depozitlarning jami depozitlardagi ulushi ortib borayotganligida ko'rishimiz mumkin. Xususan, 2017-yilda jami depozitlarning 26,9 foizini xorijiy valyutadagi depozitlar tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 43,1 foizga yetgan.

2017-yilda jami depozitlar 37,2 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, shundan xorijiy valyutadagi depozitlar 10,0 trln so'mdan ortiqni tashkil etgan. 2021-yilga kelib esa jami depozitlar summasi 114,7 trln so'm bo'lgani holda xorijiy valyutadagi depozitlar summasi 49,4 trln so'mga yetgan.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi jami depozitlari va xorijiy valyutadagi depozitlar [5], (1-yanvar holatiga, mlrd so'mda)

Tijorat banklari foiz stavkalaridan har doim iqtisodiyotni makro va mikro darajada tartibga solish uchun foydalaniladi. Agar mikroiqtisodiyot ko'lamida qaraydigan bo'lساk, bu tijorat banklari tomonidan foiz siyosatining qay darajada samarali ishlab chiqilganligiga, ya'ni kredit va depozitlar bo'yicha belgilangan foiz stavkalariga bog'liq bo'ladi.

Ushbu holat valyuta bilan bog'liq bo'lganligi sababli bank amaliyotida valyuta risklari yuzaga keladi, bu esa banklarni oqilona siyosat yuritishga undaydi.

1-jadval

2017-2021-yillarda "Aloqabank" ATBning depozit bazasi tarkibi va dinamikasi [6]

№	Ko'rsatkichlar	Yillar				
		2017-y	2018-y	2021-y	2020-y	2021-y
1	Jami	100	100	100	100	100
2	Talab qilib olinguncha	54,7	55,2	54,0	51,1	42,7
3	1 kundan 30 kungacha	5,1	5,3	5,5	5,4	5,3

4	30 kundan 180 kungacha	16,1	16,8	17,2	17,3	12,5
5	180 kundan 365 kungacha	13,7	12,6	17,2	15,6	12,0
6	1 yildan yuqori	10,4	10,1	12,9	9,1	27,4

2017–2021-yillarda “Aloqabank” ATB depozitlari umumiy hajmida jamg’arma depozitlari salmog’i kichikligicha qolgan. Ushbu holat “Aloqabank” ATB pul mablag’larini jamg’arma depozit hisobraqamlariga jalb qilish operatsiyalari rivojlanmaganligidan dalo-lat beradi. Faqatgina 2021-yil yakuniga ko’ra tijorat banking muddatli depozitlari o’sish tendensiyasiga ega bo’lgan. Muddatli va jamg’arma depozitlari xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari resurslarining asosiy qismini tashkil etadi. AQSh va G’arbiy Yevropa tijorat banklarida muddatli depozitlarning brutto depozitlar hajmidagi salmog’i 60 foizdan osha-di.

1-jadval ma’lumotlariga ko’ra, “Aloqabank” ATB amaliyotida talab qilib olinguncha depozitlardan kreditlash operatsiyalarini amalga oshirishda foydalanilayotgan bo’lib, bank faoliyatida transformatsiya riskining kuchayishiga sabab bo’lgan. Buning sababi shundaki, talab qilib olinguncha resurslar bank uchun arzon resurs hisoblanib, banklar ushbu mablag’lardan uzoq muddatli kreditlash jarayonida foydalanish rejalashtirilgan.

2-jadval

2017–2021-yillarda “Aloqabank” ATBning muddatli depozitlari va uzoq muddatli kreditlari dinamikasi

№	Ko’rsatkichlar	Yillar				
		2017-y.	2018-y.	2021-y.	2020-y.	2021-y.
1	Kredit qo’yilmalari, mlrd.so’m	34,8	42,6	53,4	110,5	167,3
2	Uzoq muddatli kreditlarning kredit qo’yilmalarining umumiy hajmidagi salmog’i, %	79,6	79,8	80,0	95,7	94,8
3	Jami depozitlar, mlrd.so’m	28,5	35,6	44,6	58,6	70,0
4	Muddatli depozitlarning jami depozit mablag’lari tarkibidagi ulushi, %	29,9	30,2	29,5	24,9	37,4

Tahlil ma’lumotlarini ko’radigan bo’lsak, “Aloqabank” ATBning uzoq muddatli kreditlari salmog’i 2017–2021-yillarda o’sish tendensiyasiga ega bo’lgan. 2017-yilda tijorat banki tomonidan yo’naltirilgan kreditlarning 79,6 foizini uzoq muddatli kreditlar tashkil etgan

bo'lsa, 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 94,8 foizgacha oshgan. Bundan tashqari, kreditlarning mutlaq summada o'sish tendensiyasi so'nggi besh yilda 4,8 barobarga oshgan. Bu holat kredit subyektlarining uzoq muddatli pul mablag'lariiga ehtiyojini oshib borayotganligidan dalolatdir.

Tijorat banklari uzoq muddatli kreditlari va muddatli depozitlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash hamda ularning barqaror o'sish sur'atlariga erishish banklardagi transformatsiya riskini samarali boshqarishga xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, tijorat bankining uzoq muddatli depozitlari hajmini uzoq muddatli kreditlar hajmiga mos ravishda oshirib borish imkonini beradi.

"Aloqabank" ATB depozitlari va kreditlarining o'zaro mutanosibligiga baho beradigan bo'lsak, bankning depozitlari bank kreditlarining atigi 41,8 foizini tashkil qilgan. Shuningdek, uzoq muddatli kreditlar va depozitlar o'rtasida ham keskin tafovutlar mavjud. Bank tizimi uzoq muddatli kreditlari va depozitlarining o'zaro nisbatiga baho berar ekanmiz, 2021-yilda uzoq muddatli kreditlarning umumiyligi summasi 158,6 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, uzoq muddatli depozitlar 25,9 mlrd so'mni tashkil etgan. Bunda bank depozitlarning kreditlarga nisbati 16,3 foizni tashkil etgani holda bankning transformatsiya riski yuqoriligidagi qolmoqda.

Istiqlolda "Aloqabank" ATBda jalb qilingan resurslar bilan joylashtirilgan resurslarning o'zaro nomuvofiqligi bank faoliyatida quyidagi salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin:

- resurslar samaradorligini pasaytiradi va ularni boshqarishda muammolar kelib chiqadi;
- bankda transformatsiya riski vujudga keladi;
- bankda likvidlilik va uni ta'minlash bo'yicha qiinchiliklar yuzaga kelishi mumkin;
- bankning xarajatlari oshib, moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;
- bankning daromadlari va foydasi kamayishi natijasida bankka bo'lgan ishonch va qiziqish pasayib boradi.

Shu sababli, tijorat banki tomonidan depozitlarning mustahkamligini ta'minlash maqsadida depozitlar tarkibiga kiruvchi boshqa vositalardan ham samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Markaziy bankning tijorat banklari tomonidan jalb etilgan depozitlarga nisbatan o'rnatgan majburiy zaxira stavkalarining yuqori ekanligi depozitlarga banklar tomonidan belgilangan foiz stavkalarini oshirish imkonini bermaydi. Bu o'z-o'zidan bank imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Bu esa bank tomonidan beriladigan kreditlar miqdorini cheklab qo'yadi. Majburiy zaxira stavkalarining yuqori ekanligini asoslash uchun xorijiy davlatlarning bank amaliyoti ma'lumotlariga murojaat qilamiz. Markaziy bankning majburiy zaxira stavkasi Yevro hudud mamlakatlarida – 2,0 %; Rossiyada – 2,5%; Qozog'istonda – 1,5%ni tashkil qiladi.

Xulosa va takliflar

Tijorat banklar transformatsiya jarayonida depozit siyosatini samarali tashkil qilish orqali resurslarni jalb qilishni o'rganish asosida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari ning jamg'arma depozitlari miqdorini oshirish yo'li bilan ularning resurs bazasini mustahkamlash bu maqsadga erishish uchun quydagilarni taklif qilamiz:

- birinchidan, yuridik shaxslarning jamg'arma depozitlariga to'lanadigan foiz stavkalarining ijobiy darajasini ta'minlash lozim;
- ikkinchidan, aholining jamg'arma depozitlarini tijorat banklari tomonidan naqd pulda to'liq va o'z vaqtida qaytarib berilishini ta'minlash lozim.

Tijorat banklarida depozitlarning ko'payib ketishi ham bank regulyatorini izdan chiqishiga olib keldi. Regulyator izdan chiqmasligi uchun tijorat banklari samarali depozit siyosatini ishlab chiqishi kerak.

Tijorat banklarida talab qilib olinguncha depozitlarni hajmini oshib ketishi tijorat bankning risklilik darajasining oshib ketishiga olib keladi.

Rivojlangan davlatlarning, xususan, AQSh, Yaponiya va Yevropa Ittifoqining qator davlatlarida jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari tijorat banklari depozit bazasining umumiy hajmida yuqori salmoqni egallashi haqida yuqorida aytib o'tildi. Shu bois innovation bank xizmatlarini rivojlantirish nafaqat korporativ mijozlar, balki jismoniy shaxslarning depozitlarini jalb qilishga olib kelishini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonining ilovasining 116-bandi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydag'i PF-5992 son farmoni <https://lex.uz/docs/-4811025>
3. Банковский менеджмент / Под ред. О.И. Лаврушин. – М.: Кнорус, 2011. – 560 с.
4. Бухадурова М.Н. "Депозитная политика коммерческих банков во взаимоотношениях с населением". Автореферат. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.10. – Москва, 2012. – 12-15 стр.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari <https://cbu.uz>.